




New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EISSN 2181-2187

12 (86) 2025

Сопредседатели редакционной коллегии:

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
У.О. АБИДОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЪЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Б.Б. ХАСАНОВ
Д.А. ХАСАНОВА
Б.З. ХАМДАМОВ
Э.Б. ХАККУЛОВ
Г.С. ХОДЖИЕВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ NEW DAY IN MEDICINE

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

12 (86)

www.bsmi.uz
https://newdaymedicine.com E:
ndmuz@mail.ru
Тел: +99890 8061882

2025
декабрь

Received: 20.11.2025, Accepted: 06.12.2025, Published: 10.12.2025

UDK 616.314-089.23-06

OLINADIGAN PROTEZLAR NATIJASIDA KELIB CHIQADIGAN OG'IZ BO'SHLIG'I PATOLOGIYALARINI DAVOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Mustaqimov Javohir G'olibjonovich e-mail: mustaqimovjavoxir@gmail.com

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston, Buxoro sh. A. Navoiy
kochasi 1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ Резюме

Ushbu maqolada olinadigan protezlar bilan bog'liq og'iz bo'shligi patologiyalarining rivojlanish sabableri, klinik ko'rinishlari hamda ularni davolash va oldini olish usullari tahlil qilingan. Tadqiqotda protez stomatiti, kandidozli stomatit, shilliq qavatning travmatik shikastlanishlari va alveolyar o'simta atrofiyasi kabi asosiy patologik holatlarning tarqalish ko'rsatkichlari yoritilgan. Davolash samaradorligi an'anaviy va innovatsion terapevtik usullar kesimida solishtirilgan. Shuningdek, zamonaviy biomas materiallar, CAD/CAM texnologiyalari va profilaktik yondashuvlarning klinik ahamiyati asoslab berilgan. Olingan ma'lumotlar olinadigan protezlar bilan bog'liq asoratlarni kamaytirish va bemorlar hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: olinadigan protezlar, protez stomatiti, og'iz bo'shligi patologiyalari, CAD/CAM texnologiyalari, lazer terapiyasi, PRP-terapiya, profilaktika.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЛЕЧЕНИЯ ПАТОЛОГИЙ ПОЛОСТИ РТА, ВОЗНИКАЮЩИХ В РЕЗУЛЬТАТЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СЪЕМНЫХ ПРОТЕЗОВ

Мустакимов Жавохир Ғолибжонович e-mail: mustaqimovjavoxir@gmail.com

Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сины, Узбекистан, г.
Бухара, ул. А. Навои. 1 Тел: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ Резюме

В данной статье рассматриваются причины развития, клинические проявления, методы лечения и профилактики патологий полости рта, связанных с использованием съемных протезов. Проанализирована распространенность основных патологических состояний, таких как протезный стоматит, кандидозный стоматит, травматические повреждения слизистой оболочки и атрофия альвеолярного отростка. Проведено сравнительное изучение эффективности традиционных и инновационных методов лечения. Особое внимание уделено применению современных биосовместимых материалов, CAD/CAM-технологий и профилактических мероприятий. Полученные результаты направлены на снижение частоты осложнений и повышение качества жизни пациентов.

Ключевые слова: съемные протезы, протезный стоматит, патологии полости рта, CAD/CAM-технологии, лазерная терапия, PRP-терапия, профилактика.

IMPROVEMENT OF TREATMENT OF ORAL CAVITY PATHOLOGIES ARISING FROM THE USE OF REMOVABLE DENTURES

Mustaqimov Javokhir G'olibjonovich e-mail: mustaqimovjavoxir@gmail.com

Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sina, Uzbekistan, Bukhara, st. A. Navoi. 1
Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ **Resume**

This article analyzes the causes of development, clinical manifestations, treatment methods, and prevention of oral cavity pathologies associated with removable dentures. The prevalence of major pathological conditions such as denture stomatitis, candidal stomatitis, traumatic lesions of the oral mucosa, and alveolar ridge atrophy is described. A comparative assessment of the effectiveness of conventional and innovative treatment approaches is presented. Particular attention is paid to the use of modern biocompatible materials, CAD/CAM technologies, and preventive strategies. The obtained results contribute to reducing denture-related complications and improving patients' quality of life.

Keywords: removable dentures, denture stomatitis, oral pathologies, CAD/CAM technologies, laser therapy, PRP therapy, prevention.

Dolzarbligi

Olinadigan protezlar stomatologik amaliyotda tish qatoridagi nuqsonlarni bartaraf etishda keng qo'llaniladi va ular chaynash funksiyasini tiklash, nutqni yaxshilash hamda estetik ko'rinishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, olinadigan protezlardan noto'g'ri foydalanish, ularning og'iz bo'shlig'i to'qimalariga to'liq mos kelmasligi yoki protez gigiyenasiga yetarli darajada rioya qilinmasligi natijasida og'iz bo'shlig'ida turli patologik holatlar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli olinadigan protezlar bilan bog'liq patologiyalarni baholash, ularni davolash va davolash samaradorligini takomillashtirish zamonaviy stomatologiyaning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Olinadigan protezlar natijasida eng ko'p uchraydigan patologiyalar qatoriga protez stomatiti, shilliq qavatning travmatik shikastlanishlari, eroziya va yaralar, kandidozli stomatit hamda alveolyar o'simta atrofiyasi kiradi. Klinik kuzatuv va tahlillar shuni ko'rsatadiki, protez taqadigan bemorlar orasida eng ko'p uchraydigan patologiya protez stomatiti bo'lib, u umumiy holatlarning taxminan 40–45 foizini tashkil etadi. Undan keyingi o'rinlarda kandidozli stomatit 25–30 foiz, shilliq qavatning travmatik yara va eroziyalari 18–22 foiz, alveolyar o'simta atrofiyasi esa 10–15 foiz holatlarda qayd etiladi. Mazkur ko'rsatkichlar protez tayyorlash sifati, qo'llanilayotgan materiallar hamda bemorning individual anatomik va fiziologik xususiyatlari bilan bevosita bog'liq ekanligini tasdiqlaydi. Protez stomatiti protez ostidagi shilliq qavatning qizarishi, shishishi va og'riqliligi bilan namoyon bo'lib, ushbu holat ko'pincha protezning noto'g'ri tayyorlanishi, uning sirtida mikroorganizmlarning to'planishi hamda protez gigiyenasining yetarli darajada olib borilmasligi bilan izohlanadi. Travmatik yara va eroziyalar protez qirralarining o'tkirliги ёки notekis mexanik bosim ta'siri natijasida yuzaga keladi. Kandidozli stomatit esa asosan protezlarni uzoq vaqt davomida yechmasdan taqish, organizm immunitetining pasayishi va og'iz bo'shlig'ida zamburug'li infeksiyaning faol ko'payishi bilan bog'liq holda rivojlanadi. Alveolyar o'simta atrofiyasi esa protezning doimiy mexanik bosimi ta'sirida suyak to'qimasining sekin-asta so'rilishi bilan tavsiflanadi. Mazkur patologiyalarni davolashda kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega bo'lib, davolash jarayoni shilliq qavatdagi yallig'lanish jarayonini kamaytirishdan boshlanadi. Avvalo, protezni vaqtincha olib tashlash tavsiya etiladi, so'ngra yallig'lanishga qarshi, antiseptik va regeneratsiyani qo'llab-quvvatlovchi preparatlar qo'llaniladi. Kandidoz aniqlangan hollarda antifungal dori vositalaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Travmatik shikastlanishlar mavjud bo'lgan holatlarda protez qirralarini silliqlash, bosim nuqtalarini bartaraf etish yoki protezni qayta tayyorlash zarur bo'ladi. Ayrim klinik holatlarda fizioterapevtik muolajalar, shu jumladan lazer terapiyasi va PRP-terapiya qo'llanilishi davolash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Davolash usullarini solishtirma tahlil qilish natijalariga ko'ra, an'anaviy medikamentoz davolash usullari qo'llanilganda ijobiy natija o'rtacha 55–60 foizni tashkil etadi. Lazer terapiyasini qo'llash holatlarida davolash samaradorligi 75–80 foizgacha oshadi, PRP-terapiya qo'llanilganda esa bu ko'rsatkich 80–85 foizni tashkil etadi. Eng yuqori natija kompleks yondashuv, ya'ni medikamentoz davo, lazer yoki PRP-terapiya hamda protezni qayta moslashtirish birgalikda qo'llanilganda kuzatiladi va umumiy samaradorlik 90 foizgacha yetadi. Bu holat innovatsion terapevtik usullarni birgalikda qo'llashning yuqori klinik ahamiyatra ega ekanligini ko'rsatadi. Protez tayyorlashda ishlatiladigan material turi ham patologiya rivojlanish xavfiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Oddiy akril materiallardan tayyorlangan protezlarda asoratlar rivojlanish xavfi taxminan 45–50 foizni tashkil etsa, biyos va gipoallergen akril materiallarda bu ko'rsatkich 20–25 foizgacha pasayadi. Kumush ionlari yoki

antibakterial qo'shimchalar bilan boyitilgan materiallarda patologiya xavfi 10–15 foiz atrofida bo'ladi. CAD/CAM texnologiyalari asosida tayyorlangan zamonaviy protezlarda esa asoratlar kuzatilishi 8–10 foizdan oshmaydi, bu esa raqamli stomatologiyaning amaliy ustunligini yaqqol namoyon etadi. Davolashdan keyin simptomlarning yo'qolish muddati qo'llanilgan usullarga bog'liq holda sezilarli darajada farqlanadi. An'anaviy davolash usullarida shilliq qavatdagi og'riq va qizarish belgilarining yo'qolishi o'rtacha 12–14 kunni tashkil etsa, lazer terapiyasi qo'llanilganda ushbu muddat 6–7 kungacha qisqaradi. PRP-terapiyada to'qimalarning regeneratsiyasi 4–5 kun ichida kuzatiladi, kompleks davolash usuli qo'llanilgan holatlarda esa simptomlar 3–4 kun mobaynida sezilarli darajada kamayadi.

Profilaktika choralariga rioya qilish darajasi patologiyalarning qaytalanish ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Protez gigiyenasiga umuman rioya qilmaydigan bemorlarda patologik holatlarning qaytalanishi 50–55 foizni tashkil etsa, gigiyena qoidalariga qisman amal qiluvchi bemorlarda bu ko'rsatkich 25–30 foizgacha tushadi. Protezlarni to'g'ri tozalash, muntazam dezinfeksiya qilish va profilaktik stomatologik ko'riklariga o'z vaqtida kelishni to'liq bajarayotgan bemorlarda esa patologiyalarning qayta rivojlanishi 8–10 foizdan oshmaydi. Shuningdek, raqamli stomatologiya texnologiyalaridan foydalanish olinadigan protezlar bilan bog'liq asoratlarni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. An'anaviy usullarda tayyorlangan protezlar 100 foiz deb qabul qilinganda, intraoral skanerlar yordamida tayyorlangan protezlarda asoratlar taxminan 40 foizga kamayadi. 3D-printer texnologiyalari qo'llanilganda bu ko'rsatkich 60–65 foizgacha pasayadi, CAD/CAM tizimlari va sun'iy intellekt elementlari joriy etilgan holatlarda esa asoratlar 75–80 foizga kamayishi kuzatiladi. Xulosa qilib aytganda, klinik va statistik ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatadiki, olinadigan protezlar bilan bog'liq og'iz bo'shlig'i patologiyalarini kamaytirish va davolash samaradorligini oshirishda zamonaviy biomateriallar, innovatsion terapevtik usullar, raqamli texnologiyalar hamda profilaktikaga yo'naltirilgan individual yondashuv hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar stomatologik asoratlarning oldini olish, bemorlarning xalqaro sifatini yaxshilash va davolash natijalarini barqaror ta'minlashga xizmat qiladi.

Davolash: olinadigan protezlar bilan bog'liq og'iz bo'shlig'i patologiyalarini davolashda kompleks yondashuv asosiy o'rin tutadi. Avvalo, protez ostidagi yallig'lanishni kamaytirish maqsadida protezni vaqtincha olib tashlash tavsiya etiladi, so'ng shilliq qavatni antiseptik eritmalar bilan tozalash va yallig'lanishga qarshi preparatlarni qo'llash zarur. Kandidoz aniqlangan hollarda antifungal vositalar, masalan, nistatin yoki flukonazol qo'llanadi. Travmatik shikastlanishlarda protezning qirralarini silliq qilish, bosim nuqtalarini bartaraf etish yoki protezni qayta moslashtirish muhim hisoblanadi. Fizioterapevtik muolajalar, jumladan lazer terapiyasi va PRP-terapiya qo'llanilganda shilliq qavatning regeneratsiyasi tezlashadi va davolash samaradorligi oshadi. Shuningdek, davolash davomida bemorlarning og'iz gigiyenasiga alohida e'tibor qaratish muhimdir, chunki mikroorganizmlarning to'planishi patologik jarayonlarni kuchaytiradi.

Oldini olish: olingan patologiyalarning oldini olish va profilaktik choralar esa bemorlar hayot sifatini yaxshilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Buning uchun protezlarni to'g'ri tayyorlash, individual anatomik xususiyatlarni hisobga olish va sifatli biomateriallardan foydalanish lozim. Protezlarni muntazam tozalash, maxsus cho'tka va eritmalar yordamida dezinfeksiya qilish, protezlarni kechasi yechish va shilliq qavatni dam oldirish bemorlar tomonidan bajarilishi zarur bo'lgan asosiy gigiyena qoidalaridir. Shuningdek, bemorlarni profilaktik stomatologik ko'riklariga muntazam jalb qilish, har yili kamida ikki marta tish va protez holatini tekshirish orqali patologik holatlarning erta aniqlanishi va vaqtida davolanishi ta'minlanadi. CAD/CAM texnologiyalari va 3D-printer asosida tayyorlangan protezlar qo'llanilganda shilliq qavatga tushadigan bosim teng taqsimlanadi, travmatik shikastlanishlar kamayadi va asoratlar xavfi sezilarli darajada pasayadi. Shu bilan birga, bemorlarning o'z profilaktik yondashuvi va stomatologik madaniyati oshirilsa, og'iz bo'shlig'i patologiyalarining qaytalanishi minimal darajaga tushadi.

Xulosa

Kompleks yondashuv, zamonaviy materiallar va innovatsion davolash usullarini qo'llash orqali olinadigan protezlar bilan bog'liq asoratlar kamayadi, bemorlarning qulayligi va hayot sifati yaxshilanadi, shuningdek, davolash jarayoni qisqaradi va natijalar barqaror bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Arendorf T.M., Walker D.M. Denture stomatitis: a review. // Journal of Oral Rehabilitation. 2017;44(9):690–701.
2. Borovskiy E.V. Terapevticheskaya stomatologiya. – M.: Meditsina, 2019. – 640 s.
3. Budtz-Jørgensen E. Oral mucosal lesions associated with the wearing of removable dentures. // Journal of Oral Pathology Medicine. 2018;47:115–123.
4. Grudyanov A.I., Frolova O.A. Zabolevaniya slizistoy obolochki polosti rta. – M.: GEOTAR-Media, 2021. – 256 s.
5. Miyazaki T., Hotta Y. CAD/CAM systems available for the fabrication of crown and bridge restorations. // Australian Dental Journal. 2018;63:39–44.
6. Revilla-León M., Özcan M. Additive manufacturing technologies used for processing polymers: current status and potential application in prosthetic dentistry. // Journal of Prosthodontics. 2020;29(2):146–158.
7. Tsarev V.N., Nikolaeva E.N. Proteznyy stomatit: etiologiya, diagnostika i lechenie. // Stomatologiya. 2020;4:12–18.
8. Webb B.C., Thomas C.J., Willcox M.D. Candida-associated denture stomatitis. // Australian Dental Journal. 2019;64:99–109.
9. Zholudev S.E. Syomnye zubnye protezy i ikh vliyanie na slizistuyu obolochku polosti rta. – Ekaterinburg, 2018. – 210 s.

Qabul qilingan sana 20.11.2025